

KOREYS VA O'ZBEK TILLARINI QIYOSIY O'RGANISHGA DOIR MULOHAZALAR

A.S. Rahimov
SamDCHTI professori v.b

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin 1991 yilning 30 dekabrda Osiyoning Tinch okeani mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib Janubiy Koreya mustaqilligimizni tan olgan edi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yilning 29 yanvarida o'rnatilgan edi. SHu kundan buyon O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar har bir sohada ijobiy ruhda, muvaffaqiyatli tarzda rivojlanib kelmoqda. Xususan, Toshkentda 1992 yildan boshlab Koreya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib kelayotgani, O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasida va 48 ta maktab va litseylarida koreys tilining o'qitilayotgani, Toshkentdagi Inxa, Puchon, Yoju universitetlari, Farg'onadagi Koreya xalqaro universiteti va Aju universitetlarining faoliyat ko'rsatib kelayotgani shundan dalolat beradi.

Bugungi kunda ushbu oliygohlar Koreyaning 45 dan ortiq universitet, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu aloqalarning samarasi ularoq, koreys yoshlari o'rtasida o'zbek tili, milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz va san'atimizni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Koreyaning Tegu va Pusan chet tillari universitetlarida o'zbek tilining o'qitilayotgani koreys va o'zbek halqlari o'rtasidagi hamkorlikni ikki yoqlama rivojlayontganidan darak beradi.

Koreya va O'zbekiston o'rtasida o'rnatilgan ushbu hamkorlik aloqalari o'zbek koreysshunoslari zimmasiga ikki tilni qiyoslab o'rgatish va ilmiy o'rganish bilan bog'liq ilmiy va metodik asoslarni ishlab chiqish vazifasini ham yuklaydi. Hozirga qadar ushbu tillarni Oltoy nazariyasi doirasida o'rganish bo'yicha muayyan natijalar qayd etilgan bo'lsa-da, koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitish va qiyosiy o'rganish bilan bog'liq bir qator izohtalabliklar ham saqlanib qolmoqda.

Ushbu izohtalabliklarning tub negizida tilni funksional-pozitsion va sistem-struktur nuqtai nazardan talqin qilinishi bilan bog'liq metodologik farqlar yotadi. Koreys tilshunosligiga oid o'quv va ilmiy manbalarda funksional-pozitsion yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etgani bois, nutq birliklari vositasida tilni tavsiflash etakchilik qiladi. Sistem-struktur talqinda ham nutq tilning hosil bo'lishi va mavjudligi uchun zaruriyat sifatida qaralsada, tilshunoslikning o'rganish ob'ekti sifatida ijtimoiy asosli tilga tayaniladi.

Til va nutq dixatomiyasiga asoslanuvchi ushbu yondashuv tufayli lisoniy birliklarni belgilash va tasniflashda individual asosli nutq variantlariga emas, balki

ijtimoiy tilga xos invariant birliklarga tayanish imkonini beradi. Funktsional-pozitsion yondashuv ustuvor bo'lgan koreys tilshunosligida esa, til tizimiga xos birliklarni belgilash va tasniflashda nutqiy variantlarga tayaniladi. Masalan, koreys tiliga oid manbalarda unli fonemalarning 8 tadan 21 tagacha qayd etilishi ushbu yondashuv bilan bog'liqdir.

Xususan, Fil Kimning qo'llanmasida talaffuz ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar, turli so'z va so'z shakllari tarkibidagi eng qisqa tovushlar fonema deb atalishi qayd etiladi. Uning fikriga ko'ra, fonemalarning asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlash hisoblanadi. Masalan, unli fonemalar alohida holda bo'g'in tashkil qiladigan artikulyar: ㅏ , ㅓ , ㅗ , ㅜ , ㅝ , ㅟ , ㅠ , ㅡ , ㅢ va bo'g'in tashkil qilmaydigan noartikulyar: ㅜ , ㅟ , ㅠ , ㅡ , ㅢ , ㅡ , ㅣ , ㅜ , ㅟ , ㅠ , ㅡ turlardan iborat bo'lib, jami 21 tani tashkil qiladi (Kim Fil. 2002: 16).

Mazurning darsligida esa koreys tilidagi unlilar miqdori: ㅏ a, ㅓ o, ㅗ i, ㅜ ɤ, ㅝ e, ㅟ e, ㅠ o', ㅡ u kabi sakkizta "sodda unlilar", ㅝ ya, ㅟ ye, ㅠ ye, ㅡ yo, ㅢ ye, ㅜ wa, ㅟ we, ㅠ we, ㅡ yo, ㅢ wo, ㅜ we, ㅟ wi, ㅠ ɤi unlilari esa "diftong va diftongoid"larga ajratilib ko'rsatiladi (Mazur. 1960: 20).

Sistem-struktur tavsifga ko'ra, ushbu fonetik birliklar til va nutq dixatomiyasiga mos holda, til tovushlari (fonema) va nutq tovushlaridan tashkil topadi. Til tovushlari bo'lgan fonemalar lisoniy xotira birligi sifatida nutq tovushlarining artikulyasion-akustik andozasi, obrazi asosida saqlanadi.

Fonema va fon (nutq tovushlari) o'rtasida invariant-variant dialektikasiga asoslanuvchi munosabat mavjud bo'lib, invariantlik orqali fonemalarning nisbiy barqaror va o'zgarmas belgilari, variant orqali esa invariant fonemaning nutq jarayonida kuzatiladigan muqobillari nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan qargalganda, Fil Kim tomonidan 21 ta deb hisoblangan: ㅏ a, ㅓ e, ㅗ ya, ㅜ ye, ㅝ o, ㅟ ye, ㅠ yo, ㅡ ye, ㅢ o, ㅜ wa, ㅟ we, ㅠ we, ㅡ yo, ㅢ u, ㅜ wo, ㅟ we, ㅠ wi, ㅡ u, ㅢ ɤ, ㅜ ɤi, ㅟ i unlilari YU. N. Mazur tomonidan qayd etilgan: ㅏ a, ㅓ o, ㅗ i, ㅜ ɤ, ㅝ e, ㅟ e, ㅠ o', ㅡ u fonemalarining variantlari yoki allafonlari hisoblanadi.

Unlilarning bu kabi variantlanishi o'zbek alifbosida ifodalanmasa-da, og'izaki nutqda, o'zbek shevalarida kuzatiladi. Masalan, *qalam*, *katta* so'zlaridagi «a» o'zidan oldingi «q» va «k» undoshlar ta'sirida qattqlik va yumshoqlik xususiyatiga ega bo'lgani holda, *a* / *ə* tarzida variantlanishi, *qir* va *kir* so'zlari tarkibidagi "i" invariant fonemasining qattiq "ɪ", yumshoq "i" tarzida variantlanishi shundan darak beradi.

O'zbek tilidagi 6 ta unlining qozoq tilida: *a*, *ə*, *e*, *e*, *o*, *ə*, *ɤ*, *ɤ*, *ɤ*, *i*, *u*, *i* kabi, turk tilida: *a*, *ɪ*, *u*, *o*, *e*, *i*, *ü*, *ö* singari qattiq va yumshoq belgilar vositasida ifodalanishi, o'zbek tili tarxiga oid manbada: *əl* (qo'l), *al* (aqlli), *el* (xalq), *kir*

(kirmoq), kir (kir bo'lmog), qız (qiz bola) singarilarning keltirilishi ham invariant-variantlik tamoyiliga ishora qiladi (Q. Mahmudov. 2006: 45).

Koreys tilshunosligida lisoniy birliklar funksional-pozitsion nuqtai nazardan tavsiflangani bois, til va nutq dixatomiyasiga asoslanuvchi invariant-variant dialektikasi emas, balki nutq amaliyotidan kelib chiqib tilni izohlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv, garchi koreys tilini amaliy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa ham, uni ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflashda, ayniqsa o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Xususan, ot turkumiga mansub so'zlarni: a) 상 (床) (stol), 양곡 (糧穀) (don), 가루 (un), 어린이 (bola), 도령 (o'smir), 비참 (悲慘) (qayg'u, g'am), 낙 (樂) (quvonch) kabi ega pozitsiyasida keladiganlarni mustaqil tur sifatida; b) 분 (odam, shaxs), 놈 (mavjudot), 것 (narsa, ob'ekt), 데 (joy), 쪽, 측 (tomon) kabi postpozitiv qo'llashiga qarab “중속적 명사들 - qaram otlar” sifatida ajratilishini tilshunoslik haqidagi boshlang'ich ma'lumotni ona tilidan olgan o'zbek o'quvchisiga tushuntirish qiyin kechadi.

Til birliklarga xos lisoniy maqomini ularning funksional pozitsiyasiga ko'ra tavsilanishi mustaqil va yordamchi so'zlarni hamda qo'shmchalarni bir-biridan farqlashda ham muayyan qiyinchilik tug'diradi. Xususan, 때 “tte” – “vaqt, lahza, payt” ma'nosidagi so'zni: a) 이런 때를 당할 때마다 사라 보겠다는 생각은 한층 도 강하여진다 (Har safar, shunday hayajonli lahzalarni boshdan kechirganingda, yana ham ko'proq yashaging keladi) jumlasida mustaqil so'z, b) 놀로 오는 때마다 그 때 세 살 나는 어린 아들을 붉은 담요에 싸 업고 왔다 (Har safar, u mehmonga kelgan paytda, qizil adiyalga o'ralgan bolasini elkasida opichlab kelar edi) jumlasida yordamchi so'z sifatida izohlanishi singari (D. A. Karpeka, 2018:138).

Koreys tili so'z turkumlari tasnifidagi bunday xilma-xilliklarga tanqidiy baho bergan qozoqistonlik koreysshunos T. B. Li muayyan bir mustaqil so'z tarkibida yordamchi va affiks morfemalarning ajratilishini, affiks morfemalarni so'z turkumlari qatoriga kiritilishi koreys tilining agglyutinativ tabiatiga mos kelmasligini, ushbu nomutanosiblikni turkiy tillarda shakllangan tasnifiy tajribalar asosida bartaraf etilishi lozimligini ta'kidlaydi (T.B. Li 2014: 124-131).

Darhaqiqat, bunday pozitsion yondashuv koreys tilini umumiy tilshunoslikda shakllangan tamoyillar asosida o'rganishga to'sqinlik qilganidek, koreys tili bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib etishish niyatida tahsil olayotgan talabalarga ham muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Garchi soʻz turkumlarining gapdagi pozitsiyasi va vazifalari har doim bir-biriga mutanosib kelmasligi barcha tillarga xos boʻlsa-da, tilning fonetik, leksik, morfologik, morfemik va sintaktik sathlariga xos lisoniy birliklarni farqlashda struktur tilshunoslikda shakllangan tajribalarga tayanib ish koʻrish muayyan darajada oʻzini oqlaydi.

Koreys tilshunosligida etakchilik qiladigan funksional-pozitsion tavsif garchi koreys tilini oʻrganishning dastlabki bosqichida muhim ahamiyatga ega boʻlsa ham, ushbu tilni ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflashda, oʻzbek tili bilan qiyoslab oʻrganishda ojizlik qiladi. Shu bois, oʻzbek talabalari uchun koreys tilidan oʻquv qoʻllanmalari va darsliklar yaratishda sitem-struktur tahlil tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Фил Ким. Грамматика современного корейского языка. - Алматы. 2002.
2. Мазур Ю. Н. Корейский язык. –Москва. 1960.
3. Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Тошкент «Ижод» нашриёт уйи, 2006.
4. Карпека, Д. А. Грамматика корейского языка. - СПб.: Восточный экспресс, 2018.
5. Ли Т.Б. Спорные вопросы определения термина «служебные имена существительные» в корейском языке. Вестник КазНУ. Серия востоковедения. №2(68). 2014: 124-131.
6. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining oʻziga xosligi xususida. Международный журнал искусство слова, 5(3).
7. Назарова, Ш. Б. (2019). Ўзбек ва корейс тилида адвербализация ходисасининг қиёсий таҳлили.
8. Usmonqulovna, B. D., & Aziz Toʻlqin oʻg, A. (2023). Oʻzbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. Journal of new century innovations, 24(1), 46-49.
9. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. Международный журнал искусство слова, 5(4).
10. Furkatovna, B. I. (2023). Discursive-pragmatic characteristics of articles expressing the etiquette of communication (on the example of korean and uzbek languages). Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 24-29.